

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMEDOV DOMIR AZIMBOYEVICH

**NOANIQLIK SHAROITIDA NOCHIZIQLI DINAMIK OBYEKTЛАRNI
ADAPTIV BAHOLASH VA BOSHQARISH ALGORITMLARI**

**05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish (texnika fanlari)**

**texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Axmedov Domir Azimboyevich

Noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash
va boshqarish algoritmlari 3

Ахмедов Домир Азимбоевич

Алгоритмы адаптивного оценивания и управления нелинейными
динамическими объектами в условиях неопределенности 21

Akhmedov Domir Azimboyevich

Algorithms for adaptive estimation and control of nonlinear dynamic objects
in conditions of uncertainty 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMEDOV DOMIR AZIMBOYEVICH

**NOANIQLIK SHAROITIDA NOCHIZIQLI DINAMIK OBYEKT LARNI
ADAPTIV BAHOLASH VA BOSHQARISH ALGORITMLARI**

**05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish (texnika fanlari)**

**texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/T455 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Zaripov Oripjon Olimovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ismailov Mirxalil Agzamovich**
texnika fanlari doktori, professor

Avazov Yusuf Shodiyevich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «19» 09 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (334 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «25» 08 kuni tarqatildi.
(2023 yil «02» 08 dagi 15 raqamli reestr bayonnomasi).




N.R. Yusupbekov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor, akademik


U. Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent


Igamberdiyev X.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi vaqtlarda texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish sohasida dinamik obyektlarni boshqarish va holatlarini baholash usullari va algoritmlarini ishlab chiqishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu sohada holatlarni adaptiv baholashning muntazam algoritmlarini ishlab chiqish va noxiziqli rostlagichlarni sintezlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu, boshqarish jarayonlarining sifatiga boʻlgan yuqori talablarning dinamik obyektlardagi noxiziqli hodisalarni hisobga olishga majbur qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham noaniqlik sharoitlarida ishlovchi murakkab texnologik obyektlarni boshqarish va ularning holatlarini adaptiv baholashning samarali noxiziqli algoritmlarini ishlab chiqishning nihoyatda zarurligi yuzaga keladi.

Jahonda noxiziqli modellarni oʻrganish, tahlil qilish va sintezlash asosida boshqarish sistemalarining zamonaviy rostlagichlari va boshqa elementlarini yaratish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Noxiziqli obyektlarning boshqarish sistemalarini noxiziqli rostlagichlarini sintezlash masalasi chiziqchilari bilan solishtirib boʻlmaydigan darajada murakkab. Shu sababdan, holatlarni adaptiv baholash va noxiziqli rostlagichlarni hamda ular asosida harakatning asimptotik turgʻunligini tortish sohasidagi umumiy yoki katta bahosi bilan taʼminlovchi boshqarish qonunlarini sintezlashning usul va algoritmlarini takomillashtirish va modifikatsiyalash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikada hozirgi kunda avtomatlashtirish va boshqarish yoʻnalishiga, jumladan turli texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarishda energiya va resurs tejamkorlikni taʼminlovchi takomillashtirilgan boshqarish sistemalarini yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, jumladan «... zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar, jihozlar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, ... sanoat sohasidagi yoʻqotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini ishlab chiqish va energiya samaradorlikni oshirish boʻyicha loyihalarni moliyalashtirish»¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda, jumladan, boshqarish jarayonlarining sifat koʻrsatkichlarini va aniqligini oshirish imkonini beradigan noxiziqli rostlagichlarni sintezlash va holatlarni adaptiv baholashning samarali algoritmlarini yaratish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Qarori va 2019 yil 3 apreldagi PF-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018 yil 25 oktabrdagi PF-3983-son «Oʻzbekiston Respublikasining kimyo sanoatini tezkor rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018 yil 27

¹ Ўзбекистон республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони

apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining III. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nochiziqli obyektlarning holatlarini adaptiv baholash va nochiziqli rostlagichlarni sintezlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarga tegishli, so‘nggi yillardagi ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili mazkur sohada ahamiyatli darajadagi nazariy va amaliy natijalarga erishilganligidan darak beradi. Nochiziqli adaptiv boshqarish sistemalarini sintezlash muammolariga bag‘ishlangan ko‘p sonli ishlar nashr etilgan, umumnazariy konsepsiyalar ishlab chiqilgan, yechilgan amaliy masalalar soni ortib bormoqda. Nochiziqli sistemalarni qurishni adaptiv usullari rivojiga xorijlik olimlardan J.Zhou¹, K.S.Narendra², V.F.Sokolov³, V.O.Nikiforov⁴, S.B.Pelsverger⁵, D.Aeyels⁶, B.Widrow⁷ kabilar, mamlakatimizdan B.M.Azimov, T.F.Bekmuratov, Sh.M.Gulyamov, O.O.Zaripov, X.Z.Igamberdiev⁸, M.A.Ismailov, A.A.Kadirov, A.R.Maraximov, I.X.Siddikov⁹, Sh.X.Fozilov, N.R.Yusupbekov¹⁰ va boshqalar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shishgan.

Biroq ilmiy tadqiqot doirasining muntazam murakkablashuvi va kengayishi nochiziqli rostlagichlarni sintezlash hamda avtomatik boshqarishning nochiziqli sistemalarini tahlil qilishning yangi samarali usullari va algoritmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek, kvazichiziqli yondashuv va nochiziqli kvazimodal rostlagich asosida nochiziqli rostlagichlarni sintezlashning muntazamlashgan algoritmlari ham o‘zining rivojini talab etmoqda. Bundan tashqari, o‘zgaruvchan holatlarning nochiziqli kuzatuvchilarini sintezlash, nochiziqli obyektlarning o‘lchanadigan o‘zgaruvchilaridan vaqt bo‘yicha olinadigan

¹ Zhou J., Wen C. Adaptive Backstepping Control of Uncertain Systems. Nonsmooth Nonlinearities, Interactions or Time-Variations. Berlin, Heidelberg: Springer, 2008. - 241 pp.

² Narendra K.S., Monopoli R.V. Application of adaptive control. New York: Academic press, 1980.

³ Sokolov V.F. Adaptive l_1 robust control for SISO system // Syst. Control Lett. 2001. V. 42(5). –p. 379-393.

⁴ Никифоров В.О. Адаптивное и робастное управление с компенсацией возмущений. - СПб.: Наука, 2003. - 281 с.

⁵ Пельцвергер С.Б. Алгоритмическое обеспечение процессов оценивания в динамических системах в условиях неопределенности. -М.: Наука, 2004. - 116с.

⁶ Aeyels D., Lamnabhi-Lagarrigue F., Van der Schaft A. (Eds.) Stability and Stabilization of Nonlinear Systems. London: Springer, 2003. - 387 pp.

⁷ Widrow B., Walach E. Adaptive Inverse Control. A Signal Processing Approach. - IEEE Press, 2008. – 521 p.

⁸ Игamberдиев Х.З., Севинов Ж.У., Зарипов О.О. Регулярные методы и алгоритмы синтеза адаптивных систем управления с настраиваемыми моделями. - Т.: ТашГТУ, 2014.

⁹ Siddikov, I.X., Izmaylova, R.N., Siddikov, A.I. Structural-Parametric Adaptation of Fuzzy-Logical Control System // AIP Conference Proceedings, 2022.

¹⁰ Юсупбеков Н.Р., Нурмухамедов Х.С., Зокиров С.Г. Кимёвий технология асосий жараён ва қурилмалари. –Т.: «Фан ва технология», 2015. - 848 б.

hosilalarini baholash, shuningdek boshqarishning nohiziqli obyektlari holatlarini turg'un ko'p qadamli baholashning turg'un algoritmlarini ishlab chiqishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida qayd etilganlardan, noaniqlik sharoitida nohiziqli obyektlarni adaptiv boshqarishning samarali algoritmlarini yanada modifikatsiyalashni nihoyatda zarur ekanligi kelib chiqadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarning OT-F4-78 – «Identifikatsion yondashuv asosida dinamik obyektlarni boshqarishning adaptiv sistemalarini sintezlashni nazariy asoslari va muntazam usullarini ishlab chiqish» (2017-2020) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi noaniqlik sharoitlarida nohiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarish algoritmlari va ularni amalga oshirishning hisoblash sxemalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

noaniqlik sharoitida nohiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarish nazariyasi va usullari rivojini tizimli tahlil qilish;

nohiziqli dinamik obyektlarning holatlarini adaptiv baholash va kvazichiziqli aks ettirishlar asosida o'zgaruvchan holatlarning nohiziqli kuzatuvchilarini sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish;

variatsion tengsizliklar asosida boshqarish obyektlarining o'tishlar matritsasi va obyekt shovqinining kovariatsion matritsalarini turg'un adaptiv baholash algoritmlarini ishlab chiqish;

nohiziqli boshqarish sistemalarini analitik va ko'p hadli sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish;

nohiziqli dinamik obyektlarni asimptotik boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish va nohiziqli kvazimodal rostlagichlarni sintezlash;

nohiziqli dinamik jarayonlarni adaptiv baholash va boshqarishning ishlab chiqilgan algoritmlarini texnologik obyektlarni boshqarish masalalarida qo'llash.

Tadqiqotning objekti noaniqlik sharoitida nohiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarishning usullari va algoritmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti noaniqlik sharoitida nohiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarishning muntazam usullari va algoritmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, identifikatsiyalash, nohiziqli baholash, nohiziqli rostlagich va kuzatuvchilarni sintezlash, adaptiv boshqarish va nokorrekt qo'yilgan masalalarni yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kalman turidagi kengaytirilgan dinamik filtr asosida nohiziqli dinamik boshqarish obyektlarining holatlarini turg'un adaptiv baholash algoritmlari ishlab chiqilgan;

iterativ muntazamlashtirish tamoyili doirasidagi variatsion tengsizliklar asosida boshqarish obyektining o'tishlar matritsalarini turg'un adaptiv baholash algoritmlari ishlab chiqilgan;

tenglamalarini kvazichiziqli aks ettirish asosida nochiziqli boshqarish sistemalarini turg'un ko'p hadli sintezlash algoritmlari taklif etilgan;

lokal optimallashtirish asosida nochiziqli dinamik obyektlarni asimptotik boshqarishning turg'un algoritmlari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

me'yoriy ishlash sharoitidagi sanoat tajribasi natijalari asosida unni saqlash jarayonining matematik modellari ishlab chiqilgan;

unni saqlash texnologik jarayonini avtomatlashtirish va adaptiv boshqarishning strukturaviy va funksional sxemalari ishlab chiqilgan;

jarayon borishining texnologik rejimlarini barqarorlash va uning samaradorligini oshirish imkonini beradigan mos texnik ta'minot bilan unni saqlash texnologik jarayonini boshqarish sistemasi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning olingan natijalarini ishonchliligi uslubiy asoslangan nazariy yechimlarning bajarilishi; holatlarni adaptiv baholashning nazariy asoslangan konsepsiyalarini qo'llash; avtomatik boshqarishning zamonaviy nazariyasini aprobatsiyadan o'tgan usullari va algoritmlaridan foydalanish; adaptiv boshqarishning taklif etilgan usullari va algoritmlari muvofiqligini talab darajasida ekanligi; nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari va ularning o'zaro muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarishning konstruktiv algoritmlarini ishlab chiqilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni boshqarish qonunlari, nochiziqli rostlagichlar va nochiziqli kuzatuvchilarni sintezlash, holatlarni adaptiv baholash masalalarining matematik va algoritmik ta'minotlarini ishlab chiqilganligidan iborat. Ishlab chiqilgan algoritmlar uzluksiz xarakterli ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini adaptiv boshqarish sistemalarini avtomatlashtirilgan loyihalash va funksional strukturalarini qurishda keng qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kalman turidagi kengaytirilgan dinamik filtr asosida nochiziqli dinamik boshqarish obyektlari holatlarini turg'un adaptiv baholashning ishlab chiqilgan algoritmlari «Toshkentdonmahsulot» AJda joriy etilgan («O'zdonmahsulot» AKning 2023 yil 3 maydagi №4/200-son ma'lumotnomasi). Natijada rostlagich parametrlarini hisoblash aniqligi ortgan;

tenglamalarini kvazichiziqli aks ettirish asosida nochiziqli boshqarish sistemalarini turg'un ko'p hadli sintezlashning taklif etilgan algoritmlari «Toshkentdonmahsulot» AJda joriy etilgan («O'zdonmahsulot» AKning 2023 yil 3 maydagi №4/200-son ma'lumotnomasi). Algoritmlar unni saqlash jarayoni borishining texnologik rejimlarini barqarorlash imkonini bergan;

lokal optimallashtirish asosida nochiziqli dinamik obyektlarni asimptotik boshqarishning taklif etilgan turg'un algoritmlari «Toshkentdonmahsulot» AJda joriy etilgan («O'zdonmahsulot» AKning 2023 yil 3 maydagi №4/200-son ma'lumotnomasi). Natijada obyekt va g'alayon parametrlarini aniqlash aniqligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, shundan 3 tasi xorijda chop etilgan. Shuningdek, EHM uchun dasturiy vositalarni qayd qilinganligi to'g'risida 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ish natijalarini aprobsiyasi ro'yxatlari keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

«Noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarish masalalari va algoritmlari» deb nomlangan birinchi bobda nochiziqli rostlagichlarni qurish usullari va algoritmlari keltirilgan, nochiziqli sistemalarning holatlarini baholash usullari va algoritmlari ko'rib chiqilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda nochiziqli avtomatik boshqarish sistemalarini tahlil qilish va sintezlashning ko'plab usullari ishlab chiqilgan, ammo ularning har biri faqatgina ma'lum bir sinfdagi obyektlar uchungina yechimni bera oladi. Boshqa tomondan, ko'p hollarda nochiziqli sistemalar uchun rostlagichlarni qurish masalasi haligacha o'z yechimini topa olgani yo'q. Ma'lum-ki, texnologik taraqqiyot zamonaviy sistemalarni yaratish uchun ajratilgan vaqtni qisqartirishga olib keladi, bu jarayonlar va boshqarish obyektlarining matematik modellarini yaratishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ko'plab zamonaviy avtomatik boshqarish sistemalari aprior noaniqlik sharoitida yaratiladi. Bu, boshqarish obyektining ayrim xususiyatlari oldindan noma'lum bo'lishi yoki uning ishlashi davomida o'zgarishi mumkinligini anglatadi.

Nochiziqli obyektlarni boshqarish masalalarida, agar boshqarish obyektining holat o'zgaruvchilari ma'lum yakuniy holatga o'tishning optimal traektoriyalarining matematik tavsifi parametrlar aniqligida ma'lum bo'lib, g'alayon ta'sirlari esa additiv oq gauss shovqini hisoblansa, ishonchli ekvivalentlik tamoyili bajariladi. Biroq, ma'lum-ki, haqiqiy sistemalarda bu shartlar bajarilmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda turli funksional vazifadagi dinamik obyektlarni boshqarish sistemalarini qurish nazariyasi va amaliyotida obyekt shovqini va o'lchashdagi xalaqitlar mavjud bo'lganda boshqariladigan obyektlarning holat vektorini baholash masalalariga nihoyatda muhim ahamiyat qaratiladi.

Yuqorida bayon etilgan xulosalar noaniqlik sharoitida nochiziqli dinamik obyektlarni adaptiv baholash va boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish va ularni sanoat ishlab chiqarishi texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish masalalarini yechishda amaliy qo'llashning zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning «**Nochiziqli dinamik obyektlarning holatlarini adaptiv baholashning turg'un algoritmlarini ishlab chiqish**» nomli ikkinchi bobi nochiziqli dinamik boshqarish obyektlari holatlarini adaptiv baholash algoritmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Nochiziqli dinamik sistema quyidagicha tavsiflansin:

$$\begin{cases} \dot{z} = f(z, u, p), \\ y = z_1, \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda $u(t) \in D_u \subseteq R - R$ fazoda D_u ostfazo bilan cheklanishi mumkin bo'lgan, o'lchanadigan kirish; $y(t) \in R - R$ o'lchanadigan chiqish; $z(t) \in R^n - R^n$ holatlar vektori; $\rho(t) \in D_p \subseteq R^q - R^q$ vaqt bo'yicha o'zgaradigan noma'lum cheklangan parametrlar vektori; $f(\cdot)$ esa n -o'lchamli silliq xilma-xillikdagi silliq vektorli maydon.

$\rho(t)$ parametrlar o'zida $z(t)$ noma'lum funksiyani namoyon etishi va parametrlarning vaqt bo'yicha o'zgaradigan noma'lumlari sifatida ilgari surilishi mumkin. Ko'pincha (1) dagi $z_i(t)$ holatlar va ba'zi noma'lum $\rho_i(t)$ parametrlar sof fizik qiymatga ega bo'ladi. Bunday hollarda (1) berilgan fizik sistema (BFS) deb nomlanadi.

Vaqt bo'yicha invariant foydalanilganda nochiziqli silliq o'zgartirishni keyingi ekvivalent shaklga o'zgartirish mumkin bo'lgan (1) shaklidagi nochiziqli sistemani ko'rib chiqamiz:

$$[x^T : \theta^T]^T = T(z, p, c_2, \dots, c_n) \quad (2)$$

bunday o'zgartirishni adaptiv kuzatuvchining kanonik shakli (AKKSh), deb ataymiz:

$$\begin{cases} \dot{x}(t) = Rx(t) + \Omega(\omega(t))\theta(t) + g(t) \\ y(t) = x_1(t). \end{cases} \quad (3)$$

(2) va (3) ifodalarda: $x(t) \in R^n - R^n$ bilan bir xil o'lchamdagi holatlar vektori; $\theta(t) \in R^m - R^m$ avtonom bo'lmagan tarzda baholanishi mumkin bo'lgan, vaqt bo'yicha

o'zgaruvchi parametrlarning noma'lumlari vektori; $\omega(t) \in R^s - u(t)$ va $y(t)$ ma'lum funksiyalar vektori, masalan, $\omega(t) = [u(t), y(t), y^2(t), \sin y(t)]$; $\Omega(\omega(t)) - n \times m$ o'lchamli matritsa bo'lib, barcha elementlari ma'lum o'zgaruvchilar uchun $\Omega_{ij}(\omega(t)) = \alpha_{ij}^T \omega(t)$ shaklga ega va nolga teng bo'lishi mumkin, vektorlari $\alpha_{ij} \in R^s$; $R - n \times m$ o'lchamli matritsaning ma'lum doimiysi. (2) sistema uchun adaptiv kuzatuvchini tavsiflash va (1) BFS da global turg'unlik kafolatlanishi uchun yetarlilik shartlarini olish lozim.

(3) bilan tavsiflanadigan sistema uchun quyidagi adaptiv kuzatuvchini ko'rib chiqamiz:

$$\begin{cases} \dot{\hat{x}}(t) = R\hat{x}(t) + \Omega(\omega(t))\hat{\theta}(t) + g(t) + \begin{bmatrix} c_1 \tilde{y}(t) \\ \dots \\ V(t)\dot{\hat{\theta}}(t) \end{bmatrix}, & (4) \\ \hat{y}(t) = \hat{x}_1(t), \quad \tilde{y}(t) = y(t) - \hat{y}(t), & (5) \end{cases}$$

bu yerda $c_1 -$ ixtiyoriy musbat o'zgaruvchi, c_2, \dots, c_n esa shunday tanlanadi-ki, $F(c_2, \dots, c_n)$ ning xususiy qiymatlari ochiq chap yarim tekislikda yotadi; yordamchi filtr $V(t) - (n-1) \times m$ -matritsa, $\varphi(t)$ esa m -vektor.

Parametrlar adaptatsiyasi quyidagi ifoda asosida amalga oshiriladi:

$$\dot{\hat{\theta}}(t) = \Gamma \varphi(t) \tilde{y}(t), \quad (6)$$

bu yerda $G - \Gamma = \text{diag}(v_1, \dots, v_n)$ kabi tanlangan ixtiyoriy musbat aniqlangan matritsa, $v_i > 0$.

Unda, mazkur sistema uchun (4)–(6) adaptiv kuzatuvchilar global turg'un hisoblanishini ko'rsatish mumkin.

Nochiziqli dinamik sistemalarning holatlarini adaptiv baholash, parametrlarini adaptiv identifikatsiyalash va adaptiv kuzatuvchisini qurishning keltirilgan algoritmlari holat vektorini baholash aniqligini va shu bilan birgalikda boshqarish jarayonlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Nochiziqli dinamik boshqarish obyektlarining holatlarini adaptiv baholash masalalarini yechishda boshqarish obyektlarining o'tish matritsalarini adaptiv baholash algoritmlarini sintezlash masalasi yuzaga keladi. Faraz qilamiz, dinamik sistemaning modeli quyidagi tenglamalar ko'rinishida tavsiflanadi:

$$x_{i+1} = Ax_i + \Gamma w_i, \quad (7)$$

$$z_i = Hx_i + v_i, \quad (8)$$

bu yerda $x_i - n$ o'lchamli sistemaning holat vektori; $z_i - m$ o'lchamli kuzatish vektori; w_i va $v_i -$ mos ravishda q va p o'lchamli obyekt shovqini va kuzatuvchi xalaqitlari vektori bo'lib, $E[w_i] = 0$, $E[w_i w_k^T] = Q \delta_{ik}$, $E[v_i] = 0$, $E[v_i v_k^T] = R \delta_{ik}$, $E[w_i v_k^T] = 0$ tavsifli gauss turidagi oq shovqinlar ketma-ketligi hisoblanadi; A , G va $N -$ mos o'lchamli matritsalar.

Ko'rib chiqilayotgan (7), (8) sistemalar siljishga vaqt bo'yicha invariant va to'la kuzatiladigan bo'lsin:

$$\text{rank}[H^T \mid (HA)^T \mid \dots \mid (HA^{n-1})^T]^T = n,$$

bu yerda « T » matritsalarini transponirlanishini anglatadi.

Matritsalar ketma-ketligi $\{\hat{A}\}_{i=1}^n \rightarrow A$ shaklda, deb faraz qilgan holda quyidagi ko‘rinishli masalani ko‘rib chiqamiz:

$$\hat{A}^T \cdot [H^T \mid (H\hat{A})^T \mid \dots \mid (H\hat{A}^{n-1})^T]^T = [C_1^T \mid C_2^T \mid \dots \mid C_n^T]^T = C^T, \quad (9)$$

bu yerda blokli matritsa S tajriba maxlumotlariga ishlov berish natijasi hisoblanadi.

Shunday qilib, \hat{A} bahoni olish uchun (9) tenglamani yechish lozim. Mazkur masala noxiziqli tenglamalar sistemasini yechishga ekvivalent bo‘lib, uni yechishda iterativ usullarni qo‘llash nazarda tutiladi.

Unda algoritm \hat{A}_n baholarni beradigan quyidagi tenglamani ketma-ket yechishdan iborat bo‘ladi:

$$L_{i,n}(A_i) \cdot A_{i+1} = C, \quad i = 0, \dots, n-1,$$

bu yerda $L_{i,n}(A_i) = [H^T (H\hat{A}_i)^T \dots (H\hat{A}_i^{n-1})^T]^T$.

\hat{a}_j vektorni aniqlashni quyidagi ko‘rinishli funksionalni minimallashtirish asosida amalga oshiramiz:

$$f(a_j) = \sum_{j=1}^{\eta} (\mathbf{L}(a_j) - c_j)^2, \quad \eta = m \cdot n,$$

ya’ni qidirilayotgan \hat{a}_j vektor baho $\hat{a}_j = \arg \inf_{a \in R^n} f(a_j)$.

Shunday qilib, quyidagi shart bajariladigan shunday a_j ni aniqlash lozim:

$$(F(a_j), a_j - d_j) \leq 0, \quad \forall d_j \in Q, \quad (10)$$

bu yerda $F(a_j)$ – ixtiyoriy monoton operator.

(10) tenglamani yechish uchun variatsion tengsizliklar bilan bog‘liq bo‘lgan aks ettirishlar uchun Tixonovning muntazamlashtirish algoritmini yuzaga keltiruvchi iterativ usul nihoyatda samarali hisoblanadi. Agar $a_{j,r}$ berilgan bo‘lsa, unda $a_{j,r+1}$ (10) turdagi “muntazamlashgan” tengsizlikni yechish orqali topiladi:

$$(F(a_{j,r}) + \varepsilon_r a_{j,r} + (F'(a_{j,r}) + \varepsilon_r)(a_j - a_{j,r}), a_j - d_j) \leq 0, \quad \varepsilon_r > 0, \quad \forall d_j \in Q.$$

$\{\varepsilon_r\}$ va boshlang‘ich yaqinlashuv $a_{j,0}$ mos ravishda tanlanganda $\{a_{j,r}\}$ ketma-ketlik $a_{j,*}$ ga, ya’ni (10) ning yechimiga juda kuchli – minimal me’yor bilan yaqinlashadi. Unda quyidagi munosabat o‘rinli bo‘ladi:

$$\lim_{r \rightarrow \infty} \|a_{j,r} - a_{j,*}\| = 0,$$

bu yerda $a_{j,*}$ – (10) ning minimal me’yorga ega bo‘lgan yechimi.

Boshqarish obyektlarining o‘tish matritsalarini iterativ muntazamlashtirish tamoyili doirasidagi variatsion tengsizliklarni yechish usullari asosida adaptiv baholashni keltirilgan turg‘un algoritmlari qidirilayotgan baholarning asoslanganligi va muvofiqligini ta’minlaydi.

Bu yerda shuningdek Gauss-Nyuton usulini modifikatsiyalash asosida obyekt shovqinining kovariatsion matritsalarini kvazichiziqli aks ettirish va turg‘un

baholash asosida o‘zaruvchan holatlarning nohiziqli kuzatuvchilarini sintezlash masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Nohiziqli dinamik obyektlarni adaptiv boshqarishning turg‘un algoritmlarini ishlab chiqish**» nomli uchinchi bobi nohiziqli boshqarish sistemalarini ko‘p hadli sintezlashning muntazam algoritmlarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Quyidagi tenglama bilan tavsiflanadigan boshqariladigan nohiziqli sistemani ko‘rib chiqamiz:

$$\dot{x} = f(x, u), \quad (11)$$

bu yerda $x \in R^n$ – sistemaning o‘lchash mumkin bo‘lgan holatlar vektori; $f(x, u) \in C_{x,u}^{n-1}$ – vektor-funksiya bo‘lib, uning uchun $x \in \Omega$ bo‘lganda quyidagi munosabatlar o‘rinli:

$$f(0,0) = 0, \quad \frac{\partial f_i(x, u)}{\partial u} = f_{iu}(x),$$

bu yerda $\Omega = \{x: \|x\| \leq M < \infty\}$ – R^n fazoning biror sohasi. Bunday sharoitlarda (11) tenglama kvachiziqli aks ettirishlarga yo‘l qo‘yadi:

$$\dot{x} = A(x)x + b(x)u, \quad (12)$$

bu yerda $b(x) = [b_1(x)..b_n(x)]^T$ va $A(x) = [a_{ij}(x)]$ – funksional n -vektor va $n \times n$ -matritsa.

(11) berk sistemani $x = 0$ muvozanat holatining asimptotik turg‘unligini, yoki xuddi shunday (12) sistemani $\Omega_0 \in \Omega \in R^n$ sohada quyida keltirilgan shartlar bajarilishini ta‘minlaydigan $u = u(x)$ boshqarishni sintezlash masalasini ko‘rib chiqamiz. Boshqarishni $u = -h^T(x)x$ ko‘rinishida qidiramiz, bunda $h(x) \in R^n$. Shuning uchun (12) ni hisobga olgan holda (11) sistemaning tenglamasi quyidagi ko‘rinishni qabul qiladi:

$$\dot{x} = H(x)x, \quad H(x) = A(x) - b(x)h^T(x).$$

Faraz qilamiz, (11) dagi $f(x, u)$ shunday ko‘rinishga ega-ki, bunda qidirilayotgan $u = u(x)$ boshqarishning $h(x)$ natijalovchi vektori vaqt bo‘yicha olinadigan hosilaga bog‘liq emas. Quyidagi ko‘rinishli ko‘p hadlarni aniqlaymiz:

$$\bar{a}(s, x, \bar{h}) = s^n + \sum_{i=0}^{n-1} \alpha_i(x, \bar{h}) s^i, \quad (13)$$

$$\bar{v}_i(s, x, \bar{h}) = \sum_{j=0}^{n-1} v_{ij}(x, \bar{h}) s^j, \quad i = \overline{1, n}. \quad (14)$$

Kutilayotgan gurvsi ko‘p hadi quyidagicha bo‘lsin:

$$h^*(s) = s^n + \sum_{i=0}^{n-1} \eta_i^* s^i. \quad (15)$$

(13)–(15) ko‘p hadlar asosida quyidagi sistemani tuzamiz:

$$V\eta = \gamma, \quad (16)$$

bu yerda

$$V = \begin{bmatrix} v_{10} & v_{20} & \cdots & v_{n0} \\ v_{11} & v_{21} & \cdots & v_{n1} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ v_{1,n-1} & v_{2,n-1} & \vdots & v_{n,n-1} \end{bmatrix}; \quad \eta = \begin{bmatrix} h_1 \\ h_2 \\ \vdots \\ h_n \end{bmatrix}; \quad \gamma = \begin{bmatrix} \gamma_0 \\ \gamma_1 \\ \vdots \\ \gamma_{n-1} \end{bmatrix},$$

bunda $\gamma_i = \gamma_i(x, \bar{h}) = \eta_i^* - \alpha_i(x, \bar{h})$, $i = \overline{0, n-1}$.

(16) tenglamadagi V matritsa yomon shartlangan bo'lishi mumkin va u (16) tenglamani yechishda muntazamlashtirish usulini qo'llashni talab etadi. (16) tenglamaning taqribiy yechimini qurishda turli xil iteratsion usullar katta rol o'ynaydi. Qulaylik nuqtai-nazaridan qaralsa, A.N.Tixonovning muntazamlashtirish usulini iteratsiyalangan varianti eng qulay hisoblanadi:

$$\alpha \eta_r + V^T V \eta_r = \alpha \eta_{r-1} + V^T \gamma_\delta \quad (r = 1, \dots, m). \quad (17)$$

(9) tenglamaning yechimi quyidagi formula bilan beriladi:

$$\eta_m = (I - V^T V g_{m,\alpha}(V^T V)) \eta_0 + g_{m,\alpha}(V^T V) V^T \gamma_\delta,$$

bu yerda η_0 – boshlang'ich yaqinlashish, $g_{m,\alpha}(\lambda)$ – A.N.Tixonov usulining (17) iteratsiyalangan varianti uchun funksiyalarning natijaviy sistemasi.

Yaqinlashishda parametr $r = r(\delta, h)$ ni quyidagi shartlar bajariladigan qilib, tanlash lozim:

$$\delta \rightarrow 0, \quad h \rightarrow 0 \text{ bo'lganda, } r(\delta, h) \rightarrow \infty, \quad (\delta + h)^2 r(\delta, h) \rightarrow 0.$$

Unda $\delta \rightarrow 0, \quad h \rightarrow 0$ bo'lganda, $\eta_{r(\delta, h)} \rightarrow \eta_*$ bo'ladi, bu yerda $\eta_* - V^T V \eta_* = V^T \gamma$ tenglamaning yechimi.

Nochiziqli boshqarish sistemalarini ko'p hadli sintezlashning keltirilgan algoritmlari ma'lum sharoitlarda tizimli matritsalarining xarakteristik ko'p hadlari koeffitsientlariga chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechish orqali tegishli ko'rinishlarni berish imkonini yaratadi.

So'nggi vaqtlarda dinamik obyektlarni cheksiz vaqt intervalida optimal boshqarish (asimptotik boshqarish) masalalari ko'p uchramoqda, bunday masalalarda boshqarishning maqsadi sistemaning x_n ($n = 0, 1, \dots$) traektoriyasida aniqlangan funksional yoki berilgan kattalikdan oshib ketmasligi $\varepsilon > 0$ yoki minimal qiymatni qabul qilishi lozimligidan iborat bo'ladi. Dinamik obyekt quyidagi tenglama bilan tavsiflansin:

$$x_{n+1} = f(x_n) + C u_n + \eta_n, \quad (n = 0, 1, \dots), \quad (18)$$

bu yerda $x_n \in R^n$ – obyektning n vaqt momentidagi holatlar vektori; $u_n \in U \subset R^L$ – n vaqt momentidagi boshqarish ta'sirlari vektori, $L \leq N$; $\eta_n \in R^n$ – n -vaqt momentidagi o'lchanmaydigan tasodifiy g'alayonlar vektori; $f(x)$ – R^N da aniqlangan berilgan vektor-funksiya; $S - N \times L$ o'lchamli l rangli doimiy matritsa, $l \leq N$.

Agar har bir n da quyidagi shart bajarilsa, $\{u_n\}$ boshqarish ta'sirlari ketma-ketligini shakllantirish qoidasi «lokal» optimallashtirish algoritmi deyiladi:

$$u_n = \arg \min_{u \in U} \|g(x_n) + C u + \gamma \nabla Q(x_n)\|^2. \quad (19)$$

Boshqarish ta'siriga cheklanishlar bo'lmaganda ($U = R^L$) «lokal» optimallashtirishning (19) algoritmini quyidagi yaqqol ko'rinishda yozish mumkin:

$$u_n = -C^+[g(x_n) + \gamma \nabla Q(x_n)], \quad (20)$$

bu yerda $C^+ - S$ ga psevdoteskari matritsa.

(18) berk sistemaning tenglamasi (20) «lokal» optimallashtirish algoritmiga mos ravishda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$x_{n+1} = x_n - \gamma \nabla Q(x_n) + (I - D)[g(x_n + \gamma \nabla Q(x_n))] + \eta_n, \quad (21)$$

bu yerda $D = CC^+ -$ matritsa-proektor ($\text{rang} D = l$).

Agar S matritsa buzilmagan ($l = N$) bo'lsa, unda $D = I$ va (21) berk sistemaning tenglamasi $Q(x)$ funksiyalarni xalaqitlar sharoitida minimallashtirishning radientli algoritmiga mos keladi. S matritsani o'zgartirishda (20) ifodadagi $Q = CC^T$ ni hisoblashga asoslangan usuldan foydalanish mumkin. Q matritsa $l \times l$ tartibli $l < N$ rangli simmetrik nomanfiy aniqlangan matritsa ekanligi e'tiborga olinsa, unda quyidagi o'rinli:

$$Q^+ = T^T (TT^T)^{-2} T,$$

bunda $C^+ = C^T Q^+ = C^T T^T (TT^T)^{-2} T$.

Agar Q matritsa yomon shartlangan bo'lsa, bunday hollarda (20) dagi psevdoo'zgartirish amallari turg'unligini oshirish uchun quyidagi ko'rinishli muntazam amallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$C^+ = C^T T^T (TT^T + \alpha I)^{-2} T,$$

bu yerda $\alpha > 0$ – muntazamlashtirish parametri; I – birlik matritsa.

Bu yerda muntazamlashtirish parametri α ni modeli misollar usuli asosida aniqlash maqsadga muvofiq. Agar $Q = CC^T$ matritsa buzilmagan bo'lsa, unda $Q^+ = Q^{-1}$ va (16) ifoda o'rinli bo'ladi.

Keltirilgan ifodalar nochiziqli dinamik obyektlarni barqaror asimptotik boshqarishning soddalashgan turg'un hisoblash amallarini sintezlash imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu bobda boshqarish obyektiga xos bo'lgan xossalar va kuzatiladigan o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda boshqarish sistemalarini sintezlash imkonini beradigan nochiziqli kvazimodal rostlagichlar va nochiziqli boshqarish sistemalarini analitik sintezlash algoritmlari ham ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Ishlab chiqilgan algoritmlarni unni idishsiz saqlash texnologik jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish masalalarida qo'llanilishi**» nomli to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan algoritmlarni unni idishsiz saqlashning texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarishda qo'llash natijalari keltirilgan.

Unni idishsiz saqlash jarayonini boshqarish obyektini sifatida amalga oshirilgan ifodalanishi ko'rib chiqilayotgan jarayonni tavsiflovchi quyidagi asosiy o'zgaruvchilarni ajratish imkonini berdi: boshqariluvchi parametrlar: $U = (u_1, u_2, u_3)$,

